

OILA- MA’NAVIYAT VA MADANIYAT O‘CHOG‘IDIR**Musayeva Dilshoda Abdurahim qizi**

Namangan davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Dehqanov Narimon Burhonjonovich

NamDU birinchi prorektori, siyosiy fanlar doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning bosh bo‘g‘ini bo‘lgan, kelajak avlod vorislarini yetishtiruvchi maskan -oila hamda ma’naviyat va ma’rifat tushunchalari, madaniyat tushunchasining asl ma’nosi- tavsifi, jamiyat hayoti, xususan oilada tutadigan o‘rni, ahamiyati, yoshlar, xususan, farzandlar tarbiyasidagi roli, insonlararo munosabatlarda nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishi va jamiyatning bosh bo‘g‘ini bo‘lgan oila haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: Globallashuv, monogamiya, patriarxat,ziroat, kodeks, qusur, inventarizatsiya, fundament, gender , masshatb, etnik

Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog‘lom, umuminsoniy madaniyat, darjasи yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bolgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda oila ma’naviyatining tutgan o‘rni alohidadir. Oila tarbiyasi bo‘yicha Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda o‘ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan, islom ta’limotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha ta’kidlanadi: “ Islomda tarbiya ta’limdan ko‘ra ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, ko‘chada, mакtabda o‘zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o‘ziga bo‘ysundirishdek og‘ir ishni yo‘lga qo‘ydi. Tarbiyaning asosi - oila muhitidir. Bola uyda nimani ko‘rsa, shunga tahlid qilib o‘sadi.Oila - nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik

guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oila jamoa-urug'chilik tuzumining yemirilishi bilan barqaror uyushma bo'lib yuzaga keldi. Monogamianing dastlabki tarixiy shakli patriarchal oila bo'lgan va oilani ota boshqargan. Oila ham jamiyat taraqqiyotiga va oila a'zolari o'rtasidagi mehnat taqsimotiga qarab mohiyatini o'zgartirib turadi. Sharq oilasi G'arb oilasidan farq qiladi. Haqiqiy sevgi, muhabbat asosida qurilgan oilalar ko'p. Ba'zan hisob-kitob asosida, mulkiy munosabatlar asosida ham oila qurbanlar uchraydi. Shu sababli oila buzilishlari ham ko'pdir. Oilada doimo ahillik, totuvlik bo'lishi lozim. Agar bu narsa bo'lmasa, oilaga putur yetadi. Uning majburiyatlari buziladi. Oila rasmiy tus olgan taqdirdagina, er-xotin oldida, xotin eri oldida, ularning ikkovlari farzandlari oldida, far-zndlari ota-onalari oldida mas'uliyatli va burchli bo'ladilar. Oiladagi ma'naviyat deyilganda er-xotin, ota-onsa va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, shafqat, mehr-oqibat, odob-axloq, ta'llim-tarbiya va boshqa insoniy tuyg'ular ko'zda tutiladi. Oilaning birinchi vazifasi o'z nasl-nasabini davom ettirishdan, solih va soliha farzandlarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining tirikchilagini, bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishdan iboratdir. "Aholi soni ma'lum muayyan ko'rsatkichda bo'lib turishi uchun, olimlarning hisoblashicha, har 100 oilaga 260 ta bola to'g'ri kelishi kerak. Aniqrog'i, 100 oiladan 60 tasida 3 tadan, 40 tasida 2 tadan bola bo'lishi lozim. Olimlar hisoblariga ko'ra, agar har bir oila bittadan farzand ko'rsa, 8-avlodga kelib, ya'ni 200 yildan keyin bu xalq millat sifatida yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan. "[1]Ma'lumki, oila jamiyatning birlamchi bo'g'inidir. Jamiyat ana shu bo'g' inlardan tashkil topadi. Lekin u shunchaki bo'g'in emas, tirik vujudlar ittifoqidir. Har bir tirik vujudning o'zi alohida bir olam. Oila - ota-onsa va ularning bola-chaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, boshqacha aytganda, xonadondir. Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligidir. Tabiiy munosabat deyilganda bola-chaqali bo'lish, iqtisodiy munosabat deyilganda mulkiy munosabatlar - uy-ro'zg'or, hovli-joy, boshpana; huquqiy munosabat deyilganda nikohni davlat yo'li bilan qayd etish nazarda tutiladi. Shu sababli oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Ramziy qilib

aytsak, oila o‘ziga xos kichik bir muxtor davlatdir. Lekin oila osmondan tushmaydi, oila jamiyat tashqarisida emas, uning tarkibidadir. Oilaviy munosabat-lar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ma’naviy munosabatlar bilan belgilanadi hamda ular ta’sirida o‘zgarib boraveradi. Xalqimizda, nikoh eng avvalo, Arshi a’loda o‘qilur, keyin esa yerda, deb behuda aytilmagan. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo‘yicha, nikoh - ilohiy ahd, oila -muqaddas. «Xotinlaringiz ziroatgohingizdirlar», - deyiladi Qur’oni Karimning Baqara surasi 223-oyatida.[2] Bu so‘zlar bilan oila tuzishdan birinchi muddao - farzand ko‘rish ekaniga ishora qilinmoqda. Rasululloh sallallohu alayhi vassalam “Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan otishni, nayza uloqtirishni, otda choptirishni orgatinglar” deb farzandlaringizni chaqqon, soglom, baquvvat, ziyrak qilib tarbiyalashga ummatni targib qildilar”.(Termiziy va Abu Dovud rivoyatlari). Zeroki sog‘lom va baquvvat farzand hamma joyda ham o‘z yurtiga naf keltiradi. Oilada ayniqsa, qiz bola tarbiyasiga etibor berish asosiy o‘rin egallaydi. Qiz bolani erta tur mushga bermaslik, ularni ilm-hunar o‘rganishga yo‘naltirish ham ota-onaning vazifasi hisoblanadi. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha sharoitlar yaratib berilgan va bundan keyin bu masalaga kengroq e’tibor berish borasida bir qancha vazifalar belgilab qoyildi. Jumladan, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyiga so‘zlagan nutqida “Qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, istedod va qobiliyatini yuzaga chiqarish ular orasida haqiqiy yetakchilarni tarbiyalash ishlarini yanada kuchaytirish kerak” [3]deb ta’kidlab o‘tdilar. Shunday ekan, qiz bolaga eng qimmatli an’analar halollik, ro‘stgoylik, or-nomus, sharm-hayo, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar dastlab oila davrasida shakllanadi. Oilaning har bir a’zosi millatning davomiyligini saqllovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning rivojini ta’minlovchi, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makon ma’naviyat maskanidir. Insonning shaxs bolib shakllanishida, hayotda oz o‘rnini topib, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo‘lishida oila asosiy poydevor hisoblanadi. Oila hayotning abadiyligini davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni

saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllarni qanday inson bolib etishishiga bevosita tasir korsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. Bola tarbiyasida otaning qattiqqo‘lligi, onaning mehribonligi hal qiluvchi omillardandir. Oiladagi umumiy sog‘lom muhit mehr-muhabbat, oqibat, o‘zaro hurmat, tinch-totuvlik ,ota-onaning bilim saviyasi, iymone‘tiqodliligi, pul va puldorlikka, moddiy va ma’naviy boylikka munosabati va shu kabi ko‘pgina narsalarga bog‘liq. Ma’naviyatsiz moddiy farovonlikka ham, umumtaraqqiyotga ham erishib bo‘lmaydi. Ma’naviy qashshoqlik milliy tanazzulga olib boradi. Nohalol ayoldan halol farzand dunyoga kelmaydi. Umuman, nopolayolni Ona deya sharaflab bo‘lmaydi. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», - degan maqol behuda aytilmagan..O‘zbek oilasining o‘ziga xos axloqiy mezonlari bor. Avvalo, ertalab barvaqt turish shart. Rizqi-ro‘z tongda ulashiladi, deyiladi. Barvaqt turilgan kuni ish, o‘qishning unumli bo‘lishi hammamizga ma’lum. Ikkinchidan, yuz-qo‘lni yuvmasdan hol-ahvol so‘ralmaydi, yuz-qo‘l yuvilgandan keyingina kichiklar kattalarga salom beradilar. Ayollar nonushta hozirlaydilar. Qizlar, kelinlar hovlini, ko‘chani supurib, suv sepib qo‘yadilar. Dasturxonga birinchi bo‘lib oilaning yoshi ulug‘i qo‘l uzatadi.Ish yoki o‘qishga oilaning yoshi ulug‘idan fotiha olib ketiladi.

Qaytganda ham ularga uchrashilib, salom beriladi. Ular bunday hurmatdan mammun bo‘lib, yoshlarni duo qiladilar. Shuning uchun ham oilani rohat-farog‘at, tinchlik-xotirjamlik maskani deydilar.Oila - millat parvozi uchun maydon. Oilaga qadimdan juda katta e’tibor qaratilgan. “Qadimgi Yunon faylasufi Aflatun oila tashkil qilishda yigit qanday oilada tarbiya topgan qizga uylanajagini, qizning ota-onalari esa qanday oilalarga qizlarini berayotganlarini yaxshi bilishlari kerak deb hisoblagan. 35 yoshgacha turmush qurmagan odam jamiyatda albatta «bo‘ydoqlik» bojlarini to‘lashi kerakligini Aflatun qonun tariqasida joriy ettirgan.”[4] Arastu fikricha esa oila - bu odamlar muloqotining dastlabki ko‘rinishi bo‘lib, oilalar majmuidan davlat kelib chiqqan. Hadislarda: «Eng yaxshi sadaqa - kishining o‘zidan keyin boylik qilib qoldirgan narsasidir va, eng avvalo, o‘zing boqadirgan kishilarga (ahli ayoling) xarj qilgin», - deyiladi va oilaning mustahkamligini ta’minlashning

iqtisodiy asosiga alohida e'tibor qaratiladi. Oila va jamiyat bir-biriga bog'liq bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topgan. «Hammamizga a'yon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan - jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan - mamlakat barqarordir», - deyiladi «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» kitobida.[5] Oilaning ma'naviy va huquqiy asoslari. Oilaning ma'naviy jihatdan asoslari Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan. "63-moddasida: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega», - degan qoida mavjud." [6] Oila huquqi - nikoh tuzish va nikohni bekor qilish tartibi va shartlari; er-xotin, ota-onasi bilan bolalar o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar; farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bola asrab olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlar; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish tarzini belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasi oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: oila jamiyat va davlat muhofazasida; barcha fuqarolar: jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng;ayol bilan erkak oilada teng huquqqa ega; faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkam-lashda yordam berish; ixtiyoriy va erkin nikoh; davlat nazorati ostida nikohdan erkin ajralish; davlat otalik, onalik va bolalikni muhofaza etadi va ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qiladi; bolalarni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi uahida tarbiyalash va hokazo. 1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» qabul qilindi. Jamiyatdagi har qanday qusur va kamchiliklarning ildizini aksar hollarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitdan izlash nechog'li o'zini oqlagani kabi kuchli, barqaror hamda farovon davlat tizimi negizini ham, avvalo, mustahkam oilalar tashkil etishini bugun tobora chuqur anglab yetmoqdamiz. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni

qo‘yayotgani bejiz emas.Ko‘plab ijtimoiy og‘riqlarga sabab bo‘luvchi erta nikohlarning jamiyatimizda kuzatilayotgani, har yili ajralishlar soni 10-11 foiz oshib borayotgani, ayollar jinoyatchiligi, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi hamda huquqbazarligi ko‘p uchrayotgani, afsuski, ayni haqiqatdir. Bunday noxush manzaralarga uzil-kesil chek qo‘yish va ularning oldini olish uchun, albatta, oilalar bilan ishslash tizimiga hayotiy, samarador mexanizmlarni joriy qilish zamon talabiga aylandi. Binobarin, davlatimiz rahbarining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash” va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni zamirida ham, asosan, ana shu maqsadlar o‘z ifodasini topgan.Mazkur Farmon bilan “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazining yagona tizim sifatida Vazirlar Mahkamasining huzurida tashkil etilgani bugungi shiddatkor globallashuv jarayonida axborotlashgan oila jamiyatning asosiy bo‘g“ni sifatida muhofaza qilish hamda mustahkamlashga muhtoj ekani va har qanday davlatning istiqboli - oila mustahkamligi bilan chambarchas bog‘liqligini yaqqol tasdiqlab turibdi.Ta’kidlash joiz, ayni vaqtga qadar oilalarni alohida ijtimoiy institut sifatida monitoring qiluvchi hamda bu boradagi yagona siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi mavjud emas edi. Oilalar bilan ishlagan tashkilotlar tarqoq ravishda faoliyat yuritardi. Masalan, mahalla instituti faqatgina mahalla kesimida, xotin-qizlar qo‘mitasi ayollar masalasida, sog‘liqni saqlash tizimi ona va bola salomatligi yo‘nalishida hamda shu kabi boshqa qator tashkilotlar ham o‘z ob‘ekti tizimida davlatimizning oila siyosatida ishtirok etib kelardi xolos.Mutlaqo yangidan shakllantirilgan Markazning asosiy vazifasi esa davlat hamda jamoat tashkilotlari, parlament, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini O‘zbekiston oilalarini mustahkamlash yagona g‘oyasi atrofida birlashtirish, bu borada samarali davlat siyosatini yuritish, mamlakatda faqat sog‘lom oila sog‘lom jamiyat ustuni bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchani aholi ongiga singdirishdan iboratdir.Biz ushbu maqsadlar yo‘lida yetakchi olimlar hamda mutaxassislarini, lozim bo‘lsa, xorijiy ekspertlarni Markaz faoliyatiga keng jalb qilamiz. Barcha darajadagi oilalar rivojiga tegishli masala va muammolarni ilmiy

usullarda, amaliy tadqiqot olib borish orqali tahliliy yondashgan holda hal etish niyatidamiz. Albatta, bugungi zamondagi turli tahdidlar sharoitida oilalardagi qiyinchiliklar ko'rsatkichlari aniq masshtabini aniqlash, ularni har bir hudud kesimida, hududning o'zigagina xos geografik, etnik-ijtimoiy, tarixiy, madaniy-ma'rifiy xususiyatlaridan kelib chiqib, har taraflama o'rganish talab qilinadi. Oila mustahkamligiga erishish, zamonaviy namunali oila modelini shakllantirish uchun, birinchi navbatda, barcha sohadagi ilmiy ishlanmalar holatini inventarizatsiyadan o'tkazish hamda istiqbolda amalga oshirish lozim bo'lgan fundamental amaliy va innovatsion ilmiy ishlar rejasini ishlab chiqish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada O'zbekiston ilm-fanida muayyan yutuqlar bor, albatta. Bu jahon amaliyotida mavjud tajriba bo'lib, ijtimoiy ish kasbiga ega bo'lgan xodimlar faoliyati katta istiqbolga ega. Bunda oila to'liq davlat himoyasi hamda ko'magi bilan ta'minlanadi. Markazimiz xodimlarining vazifasi esa mahallalarda qiyin ahvolga tushgan oilalarni aniqlashda ko'maklashish, ularning manzilli ro'yxatlarini shakllantirish, ma'lumotlari bazasini to'plash, mahalla xizmatchilari va boshqa tegishli mutaxassislarning malakasini oshirish hamda davlat xizmati manzilli yetib borishi ustidan monitoring yuritishdan iboratdir. Binobarin, ushbu yo'nalish va umuman, oilalar bilan ishlashda barcha soha mutaxassislari kerakli bilim hamda ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Aynan shu maqsadda davlatimiz rahbarining Farmoni bilan "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi zimmasiga ilk bor maxsus o'quv kurslarini tashkil etish vazifasi yuklatildi va bu kurslarda mutaxassislar oila psixologiyasi, oila ma'naviyati, yoshlarni turmushga tayyorlash, sog'lom hamda mustahkam oila barpo etish, muxtasar aytganda, oila sohasidagi davlat siyosatining asoslari bo'yicha muntazam ravishda bilim, malaka va tajribalarini oshirib borishadi. "Oila" markazining Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda barcha viloyatlar boshqarmalari huzurida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, ajralishlarning oldini olish, shuningdek, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni

mustahkamlashga oid boshqa masalalar bo‘yicha kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash bo‘yicha ana shunday maxsus o‘quv kurslari erta-indin o‘z faoliyatini boshlashi kutilmoqda.”¹⁵ may — Xalqaro oila kuni munosabati bilan joriy yilning 8 may kuni Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishining bayoni bilan Oilalar mustahkamligini ta’minalash, oilaning farzand tarbiyasi borasidagi mas’uliyatini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashda oilaning tutgan o‘rnini targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Unga muvofiq, 10 — 17 may kunlari mamlakatimizda “Mustahkam oila haftaligi” deb e’lon qilindi. “[7]Ayni kunlarda butun respublikamiz bo‘ylab joylarda oilalar barqarorligini ta’minalashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, yuzma-yuz muloqotlar, savol-javoblar, viktorinalar, sport-sog‘lomlashtirish musobaqalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, kitobxonlik kunlari va boshqa turli mavzulardagi tadbirlar o‘tkazish avj pallaga kirgan.Bular, albatta, quvonarli. Biroq bugungi globallashuv sharoiti ijtimoiy-iqtisodiy omillar juda tez o‘zgarayotgan bir chog‘da chinakam ma’naviyat o‘chog‘i, milliy an’ana va urf-odatlarni asrab-avaylash manbai — oilalar bilan ishlashni tobora kuchaytirishni taqozo etmoqda. “Davlatimiz rahbari shu yil 7 fevral kuni mutasaddilar ishtirokida o‘tgan yig‘ilishda, Sirdaryo hamda Namangan viloyatlariga tashrif buyurganida ham sohada hali amalga oshirish zarur bo‘lgan qator dolzarb vazifalar turganiga urg‘u berar ekan, oilaga e’tibor aslida bu o‘zligimizga e’tibor ekanini alohida ta’kidladi.”^[8]Hozirgi paytda mamlakatimizda 7 milliontadan ortiq oilalar mavjud.

Ularda kamolga yetayotgan bolalar esa — ertamiz egalari, kelajagimiz. Har bir oilaning mustahkam bo‘lishi, ularda sog‘lom muhit qaror topishi farzandlar tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yurtimizdagи tinchlik-osoyishtalik, ijtimoiy barqarorlikni kafolatlashda ham katta o‘rin tutadi. Shunday ekan, bu boradagi sa’y-harakatlar ko‘lамини kengaytirish maqsadga muvofiq va bu zimmamizga katta mas’uliyat yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-5325-son Farmoni

2.Kravchenko A.I., Radugin K.A Sotsiologiya: Ma'ruzalar kursi.-M.:Markaz, 2001-yil

3.Solovyov N.YA., Gurko T.A Uchinchi ming yillik ostonasida oila.-M."Fikr" nashriyoti, 1996-yil

4. buxdu.uz

3. WWW.wikipediya.uz

4.Yangi O'zbekiston gazetasi, 2022-yil 17-yanvar soni, Toshkent